

## MOLIYA BOZORINING TARAQQIY ETISHIDA G‘AZNACHILIK HAMDA UNING FAN-TEXNIKANI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

*Shodmonkulova Shahlo Olimjon qizi*  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*  
*doktoranti*

Uzoq vaqt davomida markazlashgan davlat mablag‘larini boshqarishda asosiy rolni g‘aznachilik organlari egallab kelgan. Shunga asoslanib ham har bir davlat o‘ziga xos milliy xususiyatlarning rivojlanishi va shakllanishini belgilovchi omillar tufayli bir qator xususiyatlar bilan ajralib turadigan o‘ziga xos g‘azna modelini ishlab chiqadi. Xususiy sektordan farqli o‘laroq, davlat boshqaruvi sektorida sodir bo‘ladigan barcha operatsiyalar va jarayonlar tegishli me‘yoriy hujjatlar bilan tartibga solinishi kerak. Tahlil qilish uchun ularni shartli to‘rtta guruhga ajratish mumkin:

1. Asosiy 393 respublik hujjatlar;
2. G‘aznachilik organlarining tashkil etilishi, tuzilishi va faoliyati tartibini belgilovchi 393 respublik hujjatlar;
3. Yuridik shaxslarning qonun hujjatlari bilan tasdiqlangan ma‘lum davr uchun moliyaviy rejalari;
4. Byudjet hisobining milliy standartlari (ichki idoraviy hisob).

Demak, bular asosida g‘aznachilik tizimini boshqarish yanada yengillashadi. Va g‘aznachilik organlari tuzilmasining shakllanishi va rivojlanishiga jarayonlarni avtomatlashtirish darajasi, foydalaniladigan axborot turlari ham ta‘sir qilishini qayd etish zarur.

G‘aznachilik organlari tuzilmasini tashkil etish milliy moliya va bank tuzilmalarining rivojlanish darajasiga, ishonchliligi va barqarorligiga bog‘liq bo‘lib, ular qo‘llaniladigan mexanizmlar va vositalarga bevosita ta‘sir qiladi. Masalan, kassalarni rejalashtirish, naqd pul qoldig‘idagi mavjud qoldiqlarni boshqarish. Shunday qilib, qisqa muddatli qimmatli investitsiyalar davlatda zarur bo‘lgan likvidlik darajasini saqlab qolish uchun zarur bo‘lgan erkin qoldiqlarni boshqarishdan olingan daromadlar darajasiga ta‘sir qiladi. Mazkur holat bugun O‘zbekiston Respublikasi hududida mavjud g‘aznachilik tizimi, unga muvofiq faoliyat olib boruvchi organlarga juda bog‘liqdir. Hattoki, fan va texnikani takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlariga ham bog‘liq.

O‘zbekiston iqtisodiy o‘sish va taraqqiyotni ta‘minlashda fan-texnika yutuqlari muhimligini tan oladi. Bunga erishish uchun mamlakatda ilmiy-tadqiqot tashabbuslari uchun yo‘l xaritasi bo‘lib xizmat qiluvchi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. O‘zbekistonda moliyaviy tizimlarni takomillashtirish va pul oqimlarini samarali boshqarishni ta‘minlash muhim ustuvor yo‘nalishlardan biridir. G‘aznachilikda pul oqimlarini har tomonlama monitoring qilish ayni shu jarayonda muhimligini namoyon etadi.

Chunki u moliyaviy operatsiyalarning shaffofligi, hisobdorligi va samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi.

Bu borada kompleks monitoringni takomillashtirishga e’tibor qaratish foydadan holi bo’lmaydi, albatta. G’aznachilikning pul oqimlarini kuzatish va boshqarish qobiliyatini kuchaytiruvchi innovatsion usullar, texnikalar va texnologiyalarni taklif qilish orqali ustuvor yo‘nalishga fan va texnikaning rivojiga ham hissa qo’shish mumkin. Bu bilan mavjud tizimlar oldida turgan muammolarni o’rganadi, takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilaydi va O‘zbekistonning o‘ziga xos talablariga mos keladigan amaliy yechimlarni taklif etish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari g’aznachilikda pul oqimlari ustidan kompleks monitoring qilishni takomillashtirish masalasiga ham e’tibor qaratsih hamda bu takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda sun’iy 394espublik va blokcheyn kabi ilg’or texnologiyalari o’rganish ham ahamiyatlidir. Ular pul oqimi monitoringining aniqligi, o‘z vaqtidaligi va xavfsizligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu texnologik yutuqlarni G’aznachilik faoliyatiga integratsiyalash orqali g’aznachilikda pul oqimlari ustidan kompleks monitoring qilishni takomillashtirish masalasida samaradorlikni oshirish, xatolarni kamaytirish, anomaliyalarni aniqlash va firibgarlik faoliyatining oldini olishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalarni berish imkoniyatiga ega bo’lish mumkin.

Bundan tashqari, O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini chuqur o’rganib va buni inobatga olib, bu mahalliy me’yoriy-huquqiy bazani, madaniy omillarni va g’aznachilik oldida turgan o‘ziga xos ehtiyoj va muammolarni hisobga olish lozim. Ushbu kontekstual yondashuv taklif etilayotgan takomillashtirishlar nafaqat nazariy jihatdan asosli, balki amaliy va O‘zbekistonning ma’muriy va operatsion realliklarida amalga oshirilishi mumkinligini ta’minlashini ta’kidlash joiz.

G’aznachilikda pul oqimlarining kompleks monitoringini takomillashtirish maqsadida foydalaniladigan innovatsion texnologiyalar asosida G’aznachilik O‘zbekistonda 394espublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bilan hamohangligini yanada kuchaytirish ham mumkin. U G’aznachilik oldida turgan muammolarni hal qiluvchi innovatsion usullar va texnologiyalarni taklif qilish orqali moliya tizimlarini takomillashtirishga, jumladan, O‘zbekiston kontekstida dolzarbligi va qo’llanilishini ta’minlash natijasida pul oqimlarini samarali va shaffof boshqarishga ko‘maklashish, shu orqali mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va rivojlanishiga ham hissa qo’shish mumkin.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:***

1. Terent’eva V.V. *Treasury technology as a tool of the budget execution in all level of the budgetary system of the Russian Federation: Avtoref. Of Diss. Cand. Sci. (Econ.) Rostov-na-Donu: Rostov State University of Economics; 2005. 28 p. (In Russ.).*

2. *Казначейская система исполнения бюджета / Под ред. Н.Г. Ивановой и ТД. . Маковник: - СПб.: Путер, 2002. 203 с.*

3. *Shahlo Shodmonkulova Olimjon qizi. FINANCIAL RESOURCES OF THE TREASURY SYSTEM AND ISSUES OF THEIR MANAGEMENT./ Web of Scientist: International Scientific Research journal. ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023. 493-495p.*

4. *Shahlo Shodmonkulova Olimjon qizi. Experience of foreign countries in improving the methodology for monitoring cash flows in the treasury. / In volume 2, Issue 12 Web of Scientist: International Scientific research Journal (WOS) December, 2021.*

5. *Shahlo Shodmonkulova Olimjon qizi. G‘aznachilik tizimining joriy qilinishining davlat moliyasi tizimidagi ahamiyati. International conference on developments in education Hosted from Amsterdam, Netherlands; April, 2022. 350-351b.*

6. [https://t.me/jalilova\\_dilshoda\\_2292](https://t.me/jalilova_dilshoda_2292)

## **САМАРАДОРЛИКНИ ОШИРИШДА МОЛИЯ БОЗОРИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ ТАМОЙИЛИНИНГ ТАЪМИНЛАНИШИ ТЎҒРИСИДА**

**Азимова Феруза**

*Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти Phd., доцент*

**Маматов Бехруз**

*Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти  
“Бухгалтерия ҳисоби ва аудит” таълим йўналиши*

Ҳозирги рақамли иқтисодиёт шароитида бозорни ўрганиш маълум ҳажмдаги сотишни амалга ошириш, бозорга янги маҳсулотларни яратиш ва жорий этиш, шунингдек бозор улушини ошириш каби мақсадларга эришиш учун ахборот асоси бўлиб хизмат қилади. Ушбу мақсадларни белгилаш биз маълум бир маҳсулот бозори ҳақида гапираётганимизни назарда тутди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 11-сентябрдаги ПФ-158-сон “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисидаги фармони қабул қилинд [1]. Унга кўра саноатнинг «драйвер» соҳаларини ривожлантириш ва ҳудудларнинг саноат салоҳиятини тўлиқ ишга солиш, тўқимачиликда ип калавани қайта ишлаш даражасини 100 фоизга етказиш ҳамда юқори сифатли матога талабни қондириш учун 400 минг тонна сунъий ва аралаш тола ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш, чарм-поябзал саноатига 30 дан ортиқ нуфузли хорижий брендларни жалб қилиш ҳисобига қўшилган қийматни 5 баробарга ошириш кўзда тутилган.

2022 йил 28 январдаги 2022-2026 йилда “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги фармонлари қабул қилинди. Унга кўра “Тўқимачилик саноати маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмини 2 бараварга кўпайтириш” бўйича қарор қабул қилинган [2].

Бозор шароитида ишлайдиган ҳар қандай корхона учун асосий вазифа фойда олиш ва уни максимал даражага кўтаришдир.